

YANGI O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI

Xojageldiev Abatbay

Siyosiy fanlar doktori (DSc), Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi kunda O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat vaadolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishning ahamiyati, ustuvor yo'naliishlari haqida so'z etilgan. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishining siyosiy-huquqiy asoslari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik nazorati, nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari.*

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi asosiy ustuvor maqsadlarimizdan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda ushbu maqsadga erishish uchun fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyat hayotidagi o'rni va rolini oshirish va ularning faoliyatini tizimli yo'lga qoyish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Binobarin, fuqarolik jamiyati institutlarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyatdir [3.69]

Shu ma'noda, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning eng asosiy ustuvor maqsadi ham, avvalo, jamiyatimizda inson huquqlarini himoya qilish, uning manfaatlarini, muayyan tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdan iboratdir. Fuqarolik jamiyatining ushbu institutlari, o'z navbatida, alohida shaxsning jamiyatda yuksak qadriyat sifatida tan olinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyatining shakllanishida, avvalo, aholining davlat hokimiyyati organlarining faoliyatiga ishonchi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, mazkur omil davlat va aholi o'rtasidagi o'ziga xos ijtimoiy hamkorlikning yuzaga kelishi uchun zamin yaratadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati, avvalambor nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, iste'molchilarining uyushmalari va boshqalar

faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Binobarin, davlat hokimiyat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari orqali xalq bilan muloqoti demokratiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ularning o'z siyosati va faoliyati haqida xalqqa tushuntirish va hisob berishga chorlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Siyosatshunoslikda fuqarolik jamiyatini qurish hamda ular bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish dolzarb hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar bugungi kunda ham davom etmoqda. Jumladan, xorij olimlaridan Ph.Schmitter, K.Helmut, A.I.Solovev, V.P.Pugachyov, V.Baturin, respublikamiz olimlaridan A.Jalilov, U.Muhammadiev, Sh.Yakubov, N.Shodiev, M.Qirg'izboyev, X.Odilqoriev, Q.Nazarov, S.Berdiquulov va boshqalar. Ushbu maqolani yozishda yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning kitoblari va ularga qoshimcha mavzuga doir mamlakatimizda qabul qilingan qarorlar, farmonlar, farmoyishlar metodologik manba sifatida belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda tizimli-tahlil, tarixiylik, mantiqiylik, kompleks yondashuv, institutsional yondashuv metodologiyalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bugungi kunga qadar O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va ularning faoliyatini to'g'ri yo'lga qoyish borasida bir qator qonunlar qabul qilinganligini alohida qayd etish lozim.

Xususan, "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi va boshqa bir qator qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qonunosti hujjatlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat ko'rsatadigan huquqiy makonni kengaytirish maqsadida, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida maqsadli ishlar amalga oshildi. Jumladan, 2018 yil 12 aprel kuni "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Shuningdek, 2018 yil 18 aprel kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga muvofiq, «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar yangi davr talablari asosida takomillashtirildi.

Alovida ta'kidlash zarur, ommaviy axborot vositalari – jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Demokratik islohotlarni hayotga keng tatbiq etish, insonlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati beqiyos. Shu boisdan ham, bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida fuqoralarning, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning axborotga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, shu bilan birga, ularning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi va siyosiy madaniyatini yuksaltirish va fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlashda ommaviy axborot vositalari muhim o'rinni tutadi. Chunki, ayni damda siyosiy hokimiyat va aholi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi ham, ular orasidagi shaffoflikni ta'minlab beruvchi ham aynan ommaviy axborot vositalaridir. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda O'zbekistonda ommaviy axborot vositalariga to'rtinchchi hokimiyat darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarini liberallashtirish jarayoni bosqichma-bosqich, izchil, amalga oshirilmoqda. Yurtimizda OAV faoliyatini qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirish bo'yicha mustahkam qonuniy asoslar shakllantirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida umum e'tirof etilgan xalqaro me'yor va andozalarga mos bo'lib, axborot sohasini izchil va erkin rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarga "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Axborot olish erkinligi va kafolatlari to'g'risida"gi, "Reklama to'g'risida"gi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi OAV erkinligi jamiyat manfaatlarining qo'riqlanishida hamda axborotning jamiyat qatlamlariga keng tarqalishida alohida himoyalanishni talab etishi lozim degan qarorga kelgan [4].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 4 mayda "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyatni institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2019 yil 4 oktyabrda "Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shuning bilan birga, 2019 yil 30 oktyabrda qabul qilingan "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashining samarali faoliyatini ta'minlash maqsadida Fuqarolik jamiyatni shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi maqomida qayta tashkil etilganligini alohida ta'kidlash lozim.

Fuqarolik jamiyatni institutlari faoliyatini demokratlashtirish va erkinlashtirish, ularning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonidagi keng ishtirokini ta'minlash yuzasidan ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "2022-2026 yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da mazkur

sohaning joriy va istiqboldagi ustuvor maqsadlari hamda asosiy vazifalari belgilab berildi. Bunda, avvalambor, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 1-maqсади “Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish” [2] deb nomlanganiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Bundan tashqari, ushbu institutlar faoliyatining huquqiy asoslari yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham mustahkamlangan. Bosh Qomusimizning XIII bobi “Fuqarolik jamiyati institutlari” deb nomlanib, mazkur bobning 69-moddasida “Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi” [1] deb belgilangan.

Shuningdek, Konstitutsiyamizning boshqa moddalarida ham fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga oid bo'lgan konstitutsiyaviy tamoyil va qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, Asosiy Qonunimizning 70-moddasida “O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiylar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlari va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi. Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi” [1] deb belgilab qo'yilgan.

Xulosa (Conclusion). Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun shakllangan huquqiy baza, davlatning fuqarolik institutlariga yordam berishi, xususan, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashi, ularning davlat organlari bilan o'zaro hamjihatligi, ko'plab jamoat tashkilotlari samarali faoliyat ko'rsatishida muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham, bugungi kunda O'zbekistonda ushbu yo'nalishlarda bir qator samarali ishlar olib borilmoqda. Muhim jihat shundaki, ushbu say harakatlar natijasida fuqarolik jamiyati sohasida faollik ma'lum darajada kuchayib bormoqda. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining hokimiyat organlari bilan samarali aloqalarini mustahkamlashda fuqarolik jamiyati institutlari rolini oshirish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Jumladan, bunda xalqaro va respublika konferensiyalarining o'tkazilishi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu kabi tadbirlar natijasida davlat va jamiyat o'rtasidagi amaliy muloqot yanada rivojlanmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, hozirgi kunda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari, demokratik qadriyatlarni, shu bilan birga inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning muhim omiliga aylanib, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun zamin yaratmoqda. Shuningdek, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashish bilan birga, davlat va jamiyat boshqaruvida munosib ishtirok etmoqda. Eng muhim tomoni shundaki, fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatdagi faol harakatini ta'minlovchi mexanizm yaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. 01.05.2023.
<https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi» farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. Odilqoriev. X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – Toshkent: SHarq, 2002. –B.172.
4. Законы о печати. Журнал Inter – Nations. 10.04.2003.
<http://www.deutschebotschaft-moskau.ru/ru/biblioth>.
5. Kojageldiyev, A. U., & Uzakbayev, Y. A. (2021). SIYOSIY MADANIYAT VA QORAQALPOG 'ISTON SIYOSIY INSTITUTLARI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 632-643.
6. Кожагелдиев, А. У. (2021). Конституционализм как принцип организации социально-политического бытия: опыт Республики Каракалпакстан. In В поисках социальной истины (pp. 219-221).
7. Kojageldiev, A. (2020). Constitutionalism as the basic principle of democratization and modernization of the socio-political system of the Republic of Uzbekistan and the republic of Karakalpakstan. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1619-1625.
8. Кожагелдиев, А. У. (2012). РОЛЬ СРЕДСТВА МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ДЕМОКРАТИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 17(3-4), 61-66.
9. Кожагелдиев, А. У. (1996). История города Турткуля 1873-1941 г.
10. Комекбаевич, Оразбаев Арысланбай; ,ИССЛЕДОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ В КОНТЕКСТЕ ПАРАДИГМЫ СОЦИАЛЬНОГО КОНСТРУКТИВИЗМА,Universum: общественные науки : электрон. научн. журн,82,3,19-22,2022,<http://7universum.com/ru/social/archive/category/382>
11. Orazbaev Arislan Komekbaevich, Niyazimbetov Marat Kudiyarovich; ,Modern Paradigmal Approaches In Modelling Complex Systems,International Journal of Future Generation Communication and Networking,13,4,2771–2778,2020,
12. Arıslan, Orazbaev; ,THE PARADISM OF CONSTRUCTIVISM AS A METHODOLOGICAL STRATEGY FOR THE STUDY OF SOCIAL REALITY,Science and Education in Karakalpakstan,,4,159-161,2021,
13. Арыслан, Оразбаев; ,ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИ БАРПО ЭТИШДА ИЖТИМОЙ ИМКОНИЯТ ВА ИЖТИМОЙ ВОҶЕАЛИК ДИАЛЕКТИКАСИ,ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР САММИТИ,,572-574,,2022,

-
14. Komekbaevich, Orazbaev Arislanbay; ,Research Journal of Humanities and Social Sciences,Research Journal of Humanities and Social Sciences,1,2,11-13,2022,Embar Publisher
15. ORAZBAYEV, Arıslanbay; ,İjtimoiy reallik tushunchasining mazmun va möhiyati: ijtimoiy-falsafiy tahlil,Tamaddun nuri,37,4,53-56,2022,“MAX-PRISTIL” MChJ
16. PARADIGMALARI, İJTIMOİY REALLIKNING ZAMONAVIY; ,İJTIMOİY REALLIKNING ZAMONAVIY PARADIGMALARI,,,2023
17. Orazbaev, A.K.; ,DIGITAL PARADIGM OF SOCIAL REALITY,"MODERN PROBLEMS OF SCIENCE, SOCIETY AND EDUCATION",,15,141-144,2022,
18. A.K., Orazbaev; ,The Paradigm of Constructivism as a Methodological strategy for the Study of social Reality..,Science and Education in Karakalpakstan,19,4,154-159,2021,Karakalpak state university
19. Komelbayevich, Orazbayev Arislanbay; ,İjtimoiy reallik tushunchasining mazmuni va möhiyati: ijtimoiy-falsafiy tahlil,Tamaddun Nuri,36,4,53-54,2022,